INNOVATSION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026
№7

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal

Indexlanadigan bazalar: Google Scholar Crossref OpenAIRE CYBERLENIKA

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

7-jild
7-son
Iyul, 2026

July, 2026
Volume 7
Number 7

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and practical journal

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:
Qarshi davlat texnika universiteti
Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.: +998 (75) 221 09 23
+998 (93) 902 72 63
Faks: +998 (75) 221 1395
innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:
Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)
Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)
Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)
Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)
Kusainov Xalel Xaymullievich – i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)
Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)
Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)
Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do'stligi universiteti)
Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)
Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)
Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)
Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)
Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)
Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)
Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)
Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a’zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik
Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor
Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor
Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor
Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor
Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor
Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent
Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor
Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent
Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent
Aliqulov Azamat Tuyg'unovich -i.f.f.d., (PhD), dotsent
Aminov Fazlitdin Baxadirovich- i.f.n., dotsent
Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent
Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent
Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)
Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)
Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)
Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent

ИННОВАТSIОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:
Каршинский государственный технический университет
Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в электронной форме и публикуется через официальный сайт журнала.

Адрес редакции:
180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23
+998 (93) 902 72 63
Факс: +998 (75) 221 1395
E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал «Инновационная экономика» включён в перечень национальных научных изданий на основании решения Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.

В журнале публикуются статьи по следующим рубрикам:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчиников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)
Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор (Белорусский национальный технический университет)
Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор, (Кубанский государственный университет)
Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский государственный университет)
Кусаинов Халел Хаймуллиевич - д.э.н., профессор, академик (НААН Республика Казахстан)
Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)
Гибадуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент (Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт»)
Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник (Российского университета дружбы народов имени П.Лумумби)
Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент (Финансовый университет при Правительстве РФ)
Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент (Финансовый университет Правительство РФ)
Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н., профессор (Национальная академия наук Республики Таджикистан)
Перская Виктория Вадимовна – д.э.н., профессор (Финансовый университет при Правительстве РФ)
Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова)
Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор (Финансового университета Российской Федерации)
Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби)
Незамайкин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГГУ)
Никоноров Алла Владимировна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)
Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)
Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем управления РАН)
Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидахрор Саидахмедович – д.э.н., профессор, академик
Пардаев Мамаюнус Каршибоевич – д.э.н., профессор
Навруз-зода Бахтиёр Негматович – д.э.н., профессор
Хатамов Очилди Курбанович – д.э.н., профессор
Файзиева Ширин Шодмоновна – к.э.н., профессор
Жумаева Гулрух Журакуловна – к.э.н., профессор
Эгамбердиева Салима Раимовна – к.э.н., доцент
Еркаева Гулбахор Панжиевна – к.э.н., профессор
Якубова Шамшинур Шухратовна – д.э.н., (DSc), доцент
Амиркулов Шухрат Олимович – д.ф.э.н., (PhD), доцент
Самиева Гулноза Тохировна – д.ф.э.наук., (PhD), доцент
Алигулов Азамат Туйгунович – д.ф.э.н., (PhD), доцент
Аминов Фазлитдин Бахадирович – к.э.н., доцент
Хужакулова Нигора Рустамовна – д.ф.э.н., (PhD), доцент
Туробов Шерзод Алишерович – д.ф.э.н., (PhD), доцент
Алимова Муниса Юльчиевна – д.ф.э.н., (PhD), доцент
Эргашева Насиба Рахматуллаевна – д.э.н., (DSc), доцент
Бобокулов Санжар Бахромкулович – д.ф.э.н., (PhD), доцент
Джалилов Рахмонкул Хамидович – д.ф.э., (PhD), доцент
Номазов Бахром Бобомуродович – д.ф.э.н., (PhD), доцент
Алимханова Нигора Алимхановна – д.ф.э.н., (PhD), доцент
Джанузаков Мирзабек Кулмаматович – д.ф.э.н., (PhD), доцент
Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна – д.ф.э.н., (PhD)
Турсунова Азиза Хошимовна – д.ф..э.н., (PhD)
Холлиев Шерали Бахтиёрович – д.ф.э.н., (PhD)
Панджиев Самиджон Аликулич — PhD, доцент

Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti

Economy of the region and industry

Экономика региона и отрасли

UDK: 378.1:330.341.1

Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.7.7.2026.4

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION INFRATUZILMANI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Mardonova Go‘zal Mamatqul qizi

ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Мардонова Гузал

PRIORITY AREAS FOR IMPROVING ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISMS FOR THE DEVELOPMENT OF INNOVATION INFRASTRUCTURE IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Mardonova Guzal

Received: July 25, 2026 Revised: July 28, 2026 Accepted: July 29, 2026 Published: August 1, 2026

Annotatsiya: Global iqtisodiyotning bilimlar va innovatsiyalarga asoslangan rivojlanish modeli oliy ta'lim muassasalarining jamiyatdagi o'rni va funksiyalarini tubdan o'zgartirmoqda. An'anaviy yondashuvga ko'ra universitetlarning asosiy vazifasi malakali kadrlar tayyorlash va fundamental hamda amaliy ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishdan iborat bo'lgan bo'lsa, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot sharoitida ular yangi bilimlarni yaratish, intellektual mulkni shakllantirish, innovatsion mahsulot va texnologiyalarni ishlab chiqish hamda ularni iqtisodiyotning real sektoriga transfer qilish orqali mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi strategik institutga aylanmoqda.Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – oliy ta'lim muassasalarida innovatsion infratuzilmaning nazariy va metodologik asoslarini tahlil qilish, uning mavjud holati hamda rivojlanish tendensiyalarini baholash, universitetlarning innovatsion salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi samarali tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni ishlab chiqishdan iborat.

Kalit so‘zlar: oliy ta’lim, innovatsiya, innovatsion infratuzilma, innovatsion xizmatlar.

Аннотоция: Глобальная модель экономического развития, основанная на знаниях и инновациях, коренным образом изменила роль и функции высших учебных заведений в современном обществе. Если традиционно основной задачей университетов являлась подготовка высококвалифицированных кадров и проведение фундаментальных и прикладных научных исследований, то в условиях инновационной экономики они становятся стратегическими институтами, обеспечивающими создание новых знаний, формирование интеллектуальной собственности, разработку инновационных продуктов и технологий, а также их трансфер в реальный сектор экономики, оказывая тем самым непосредственное влияние на социально-экономическое развитие страны. Основной целью настоящего исследования является анализ теоретических и методологических основ инновационной инфраструктуры высших учебных заведений, оценка её современного состояния и тенденций развития, а также разработка эффективных организационно-экономических механизмов, направленных на повышение инновационного потенциала университетов.

Особое внимание уделяется совершенствованию взаимодействия между университетами, бизнесом и государством, развитию механизмов трансфера технологий и повышению эффективности коммерциализации результатов научных исследований в рамках формирования современной инновационной экосистемы.

Ключевые слова: высшее образование, инновации, инновационная инфраструктура, инновационные услуги.

Abstract: The knowledge and innovation-based model of global economic development has fundamentally transformed the role and functions of higher education institutions in modern society. Traditionally, universities have been primarily responsible for training highly qualified specialists and conducting fundamental and applied scientific research. However, in the context of an innovation-driven economy, they have evolved into strategic institutions that generate new knowledge, create intellectual property, develop innovative products and technologies, and facilitate their transfer to the real sector of the economy, thereby making a significant contribution to the country's socio-economic development.

The main objective of this study is to analyze the theoretical and methodological foundations of innovation infrastructure in higher education institutions, assess its current state and development trends, and develop effective organizational and economic mechanisms aimed at enhancing the innovation capacity of universities. The study also focuses on identifying approaches to strengthening the interaction between higher education institutions, industry, and government, improving technology transfer processes, and increasing the commercialization of research outcomes within the framework of an innovation ecosystem.

Keywords: higher education, innovation, innovative infrastructure, innovative services.

KIRISH

XXI asrda jahon iqtisodiyotining bilimlar va innovatsiyalarga asoslangan rivojlanish modeli iqtisodiy o‘sishning an’anaviy omillari – tabiiy resurslar, mehnat va kapital bilan bir qatorda intellektual kapital, ilmiy salohiyat hamda innovatsion faoliyatning ahamiyatini keskin oshirdi. Bilimlar iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi yangi bilimlarni yaratish, ularni amaliyotga tatbiq etish va tijoratlashtirish hisoblanadi. Shu bois oliy ta'lim muassasalari mamlakatning innovatsion rivojlanish strategiyasida muhim institutsional subyekt sifatida e'tirof etilmoqda.

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida universitetlarning raqobatbardoshligi nafaqat ta'lim sifati yoki ilmiy nashrlar soni bilan, balki ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish darajasi, patentlar soni, startap korxonalar tashkil etish, sanoat korxonalari bilan hamkorlik ko’lami, xalqaro ilmiy grantlarni jalb qilish va yuqori texnologiyali mahsulotlar yaratish ko'rsatkichlari bilan ham baholanadi. Shu jihatdan, zamonaviy universitetlar mintaqaviy va milliy innovatsion ekotizimning markaziy bo'g'ini sifatida ilm-fan, ishlab chiqarish va davlat boshqaruvi o'rtasidagi integratsiyani ta'minlovchi muhim institut hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ham innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, universitet–biznes–davlat hamkorligini kuchaytirish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish va innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishi hamda global raqobatbardoshligini ta'minlashning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirish oliy ta'lim muassasalarining innovatsion salohiyatini oshirish bilan birga, bilimlar iqtisodiyotiga asoslangan barqaror rivojlanish modelini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiy nazariyada innovatsion infratuzilma innovatsion jarayonning barcha bosqichlarini – fundamental tadqiqotlardan boshlab amaliy ishlanmalar, tajriba-konstruktorlik ishlari, prototip yaratish, patentlash, litsenziyalash, texnologiyalar transferi va tijoratlashtirishgacha bo‘lgan uzluksiz jarayonni qo‘llab-quvvatlovchi kompleks tizim sifatida tavsiflanadi.[2] Ushbu tizimning samarali faoliyati ilmiy salohiyat, moliyaviy resurslar, zamonaviy texnologiyalar, malakali inson kapitali va davlat tomonidan yaratilgan institutsional muhitning o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liq.[3]

Raqamli transformatsiya jarayonlari innovatsion infratuzilmaning yangi elementlarini ham shakllantirmoqda. Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data), bulutli texnologiyalar, raqamli platformalar va ochiq innovatsiyalar (Open Innovation) konsepsiyasining rivojlanishi universitetlarda ilmiy tadqiqotlarni boshqarish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va innovatsion loyihalarni masofadan turib muvofiqlashtirish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirmoqda. Natijada innovatsion infratuzilma an'anaviy moddiy obyektlar yig‘indisidan raqamli va intellektual resurslarga tayanuvchi ko‘p funksiyali ekotizimga aylanmoqda.[4]

Bundan tashqari, N. Molchanov innovatsion infratuzilmani “jamiyatning (uning barcha sohalarida) amaldagi taklif orqali to‘liq qondirilmayotgan ehtiyojlarini qondirish hamda ijtimoiy amaliyotni takomillashtirishga qaratilgan intellektual yoki ilmiy-texnik faoliyat natijasi bo‘lib, u bevosita ishlab chiqarishda yangi texnologiyalar, yangi mahsulotlar yoki xizmatlar ko‘rinishida amaliyotga joriy etish uchun mo‘ljallangan” deya ta’kidlaydi.[5]

[2] Etzkowitz, H. (2008). The Triple Helix: University–Industry–Government Innovation in Action. Routledge.

[3] Nelson, R. R. (Ed.). (1993). National Innovation Systems: A Comparative Analysis. Oxford University Press.

[4] Open Innovation. Harvard Business School Press. UNESCO. (2021). UNESCO Science Report 2021. OECD. (2023). Digital Economy Outlook.

[5] Маркетинг инноваций в 2 ч. Часть 1. учебник и практикум для академического бакалавриата Н. Н. Молчанов [и др.]; под общ. ред. Н. Н. Молчанова. - М.; Издательство Юрайт, 2017. С. 15.

O‘zbekiston sharoitida ham oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini kuchaytirish va innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar innovatsion infratuzilmaning institutsional asoslarini mustahkamlashni talab etmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida umumilmiy va maxsus iqtisodiy tadqiqot usullaridan kompleks ravishda foydalanildi. Xususan, innovatsion infratuzilmaning nazariy asoslarini yoritishda tizimli tahlil, ilmiy abstraksiyalash, induksiya va deduksiya usullari qo'llanildi. Oliy ta'lim muassasalarining innovatsion faoliyatini baholashda qiyosiy tahlil, statistik tahlil, iqtisodiy taqqoslash hamda grafik tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek, xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish maqsadida komparativ tahlil usuli qo'llanilib, innovatsion infratuzilmasi hamda ularning tashkiliy mexanizmlari tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda oliy ta'lim tizimi tub institutsional islohotlar natijasida jadal rivojlanish bosqichiga kirdi. Mamlakatda inson kapitalini rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyot uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash hamda oliy ta'limning ommabopligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Natijada oliy ta'lim muassasalari soni keskin ortdi, davlat oliy ta'lim muassasalari bilan bir qatorda nodavlat va xorijiy oliy ta'lim muassasalari filiallari tashkil etildi. Bu esa ta'lim xizmatlari bozorida raqobat muhitining shakllanishiga, ta'lim sifati va boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

2025-yil yakunlariga ko‘ra mamlakatda 207 ta oliy ta'lim muassasasi faoliyat yuritgan bo‘lib, ularda 1,7 million nafardan ortiq talaba tahsil olgan. Ushbu ko‘rsatkichlar O‘zbekiston oliy ta'lim tizimining tarixidagi eng yuqori qamrov darajasiga erishilganini ifodalaydi. Oliy ta'lim bilan qamrov darajasining 44 foizdan oshishi aholining oliy ma'lumot olish imkoniyatlari sezilarli darajada kengayganligini, shuningdek, mehnat bozorining malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan tizimli islohotlar samaradorligini ko‘rsatadi. Xalqaro tajribaga ko‘ra, oliy ta'lim bilan qamrov darajasining ortishi mamlakatning innovatsion rivojlanish salohiyati, mehnat unumdorligi hamda uzoq muddatli iqtisodiy o‘sish sur'atlariga bevosita ijobiy ta'sir ko‘rsatadigan muhim omillardan biri hisoblanadi.



1-rasm. O‘zbekistonning Global Innovation Index ko'rsatkichlari (2025)[6]

Jadvaldan ko‘rinadiki, oliy ta'lim muassasalari sonining ko‘payishi innovatsion infratuzilmani kengaytirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq universitetlar sonining ortishi ularning innovatsion samaradorligi avtomatik ravishda oshishini anglatmaydi. Shu sababli texnoparklar, biznes-inkubatorlar, texnologiyalar transferi ofislari va ilmiy laboratoriyalarni rivojlantirish zarur.[7]

Shu bilan birga, oliy ta'lim tizimining miqdoriy kengayishi sifat jihatidan ham yangi talablarni yuzaga keltirmoqda. Talabalar sonining ortishi universitetlarning moddiy-texnik bazasi, o‘quv laboratoriyalari, axborot-resurs markazlari, ilmiy laboratoriyalar, raqamli infratuzilmasi va talabalar turar joylari imkoniyatlarini kengaytirishni taqozo etadi. Ayniqsa, zamonaviy ilmiy tadqiqotlarni olib borish uchun yuqori texnologiyali laboratoriyalar, ilmiy uskunalar, raqamli kutubxonalar hamda xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazalariga kirish imkoniyatlarini rivojlantirish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyati professor-o‘qituvchilar tarkibining malakasi, ilmiy darajaga ega pedagoglar ulushi, ilmiy tadqiqotlar hajmi, xalqaro indeksatsiyalangan jurnallardagi nashrlar soni, patentlar va innovatsion ishlanmalar bilan belgilanadi.

Oliy ta'lim tizimining kengayishi universitetlarda innovatsion infratuzilmani rivojlantirish zaruratini ham kuchaytirmoqda. Zamonaviy universitetlar nafaqat ta'lim beruvchi, balki ilmiy tadqiqotlar olib boruvchi va innovatsiyalarni tijoratlashtiruvchi markaz sifatida

[6] 2025-yil davomida oliy ta’lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar, erishilgan natijalarga bag‘ishlangan brifing. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. https://gov.uz/oz/edu/news/view/112657

[7] Mamatqul qizi, M. G. (2026). Development of Innovative Infrastructure in the Regional Higher Education System. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 7(2), 323–328. https://doi.org/10.51699/cajitmf.v7i2.1216

faoliyat yuritishi lozim. Shu sababli texnoparklar, biznes-inkubatorlar, startap markazlari, texnologiyalar transferi ofislari hamda ilmiy-innovatsion klasterlarni rivojlantirish universitetlar raqobatbardoshligini oshirishning muhim omillaridan hisoblanadi. Bunday infratuzilmalar talabalar va yosh olimlarning ilmiy g‘oyalarini amaliy loyihalarga aylantirish, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish hamda hududlarning innovatsion rivojlanishiga xizmat qiladi.

Demak, O‘zbekistonda oliy ta'lim qamrovining sezilarli darajada kengayishi mamlakatning inson kapitalini rivojlantirish va bilimlar iqtisodiyotini shakllantirish yo‘lidagi muhim natijalardan biri hisoblanadi. Biroq ushbu ijobiy o‘sish sur'atlari oliy ta'lim muassasalari faoliyatini sifat jihatidan takomillashtirish, ilmiy salohiyatni mustahkamlash, innovatsion infratuzilmani rivojlantirish hamda ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini yanada kuchaytirishni talab etadi. Aynan ushbu omillar oliy ta'lim tizimining xalqaro raqobatbardoshligini oshirish, ilmiy tadqiqotlar samaradorligini yuksaltirish va mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Innovatsion infratuzilma universitetlarning raqobatbardoshligini oshirishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Xulosa qiladigan bo‘lsak oliy ta’lim tizimida innovatsion infratuzilmani rivojlantirishda iuyidagi jihatlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

1. Jahonning etakchi universitetlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, innovatsion infratuzilmaning alohida elementlari emas, balki ularning yagona tizim sifatida faoliyat yuritishi yuqori natijalarni ta'minlaydi. Masalan, ilmiy laboratoriyalarda yaratilgan ishlanmalar texnologiyalar transferi ofislari orqali patentlanadi, biznes-inkubatorlarda biznes loyihalarga aylantiriladi, texnoparklarda sanoat korxonalari bilan hamkorlikda tijoratlashtiriladi hamda venchur fondlari tomonidan moliyalashtiriladi. Ushbu uzviy bog'liqlik innovatsion g'oyalarning bozorgacha bo'lgan butun hayotiy siklini samarali boshqarish imkonini beradi. Demak, infratuzilma elementlarining integratsiyasi universitet innovatsion ekotizimining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

2. So'nggi yillarda mamlakatda oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish doirasida innovatsion markazlar, texnoparklar va startap dasturlari tashkil etildi. Biroq ko'plab ilmiy ishlanmalar ishlab chiqarishga tatbiq etilmasdan qolmoqda. Buning asosiy sabablari texnologiyalar transferi ofislarining institutsional salohiyati pastligi, intellektual mulkni boshqarish tizimining etarli darajada rivojlanmaganligi, investorlar bilan aloqalarning sustligi hamda ilmiy natijalarni tijoratlashtirish bo'yicha iqtisodiy rag'batlarning cheklanganligidir. Shu bois innovatsion infratuzilmaning nafaqat moddiy bazasini, balki uning iqtisodiy va institutsional mexanizmlarini ham takomillashtirish zarur.

3. Innovatsion g'oyalarni tijoratlashtirishning dastlabki bosqichida moliyalashtirish muammosi eng dolzarb masalalardan biridir. Venchur kapital yuqori tavakkalchilikka ega innovatsion loyihalarni moliyalashtirishga ixtisoslashgan bo'lib, ilmiy ishlanmalarni bozor mahsulotiga aylantirish imkonini beradi. Universitetlarda venchur fondlari va investitsiya platformalarining rivojlanishi professor-o'qituvchilar hamda talabalar tomonidan yaratilayotgan startap loyihalar sonini oshiradi, innovatsion tadbirkorlik muhitini shakllantiradi va iqtisodiyotning yuqori texnologiyali tarmoqlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

4. Innovatsion infratuzilma samaradorligi faqatgina moddiy-texnik bazaga emas, balki boshqaruv sifati, malakali mutaxassislar, me'yoriy-huquqiy asos va moliyaviy barqarorlikka ham bog'liq. Texnoparklar va biznes-inkubatorlar innovatsion g'oyalarni biznes loyihalarga aylantirish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, mentorlik va konsalting xizmatlarini ko'rsatishda muhim rol o'ynaydi. Ularning institutsional salohiyatini kuchaytirish innovatsion loyihalarning muvaffaqiyat darajasini oshiradi, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlaydi hamda hududiy innovatsion ekotizim rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Etzkowitz, H. The Triple Helix: University–Industry–Government Innovation in Action. Routledge. 2008

2. Nelson, R. R. (Ed.) National Innovation Systems: A Comparative Analysis. Oxford University Press. 1993

3. Open Innovation. Harvard Business School Press. UNESCO. (2021). UNESCO Science Report 2021. OECD. (2023). Digital Economy Outlook.

4. Маркетинг инноваций в 2 ч. Часть 1. : учебник и практикум для академического бакалавриата / Н. Н. Молчанов [и др.] ; под общ. ред. Н. Н. Молчанова. — М. : Издательство Юрайт, 2017. С. 15.

5. 2025-yil davomida oliy ta’lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar, erishilgan natijalarga bag‘ishlangan brifing. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. https://gov.uz/oz/edu/news/view/112657

6. Mamatqul qizi, M. G. (2026). Development of Innovative Infrastructure in the Regional Higher Education System. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 7(2), 323–328. https://doi.org/10.51699/cajitmf.v7i2.1216

7. Khamraeva Nasimovna, S. and Mardonova Mamatkul kizi, G. 2025. Theoretical foundations for the development of innovative infrastructure in the system of higher education. The innovation economy. 1, 05 (Jun. 2025).

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Mardonova Go‘zal Mamatqul qizi QDTU 2-kurs doktoranti / Мардонова Гузал Базовый докторант, КГТУ / Mardonova Guzal doctoral student KSTU
E-mail: guzalmardonova398@gmail.com
ORCID: 0009-0000-0171-1056

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

t.me/kstu_uz

Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225

www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz